



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHDA TARBIYAVIY TRENINGLARDAN FOYDALANISH

**Dexkanova Ma'mura Ulmasovna**

Toshkent davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim  
pedagogikasi" kafedrası professori v.b.

**Radjabova Xushnoza**

TDPU 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8005632>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma'qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 03-June 2023 yil

### KEY WORDS

*ta'lim-tarbiya jarayoni,  
trening, texnologiya, tahsil  
oluvchilar, "Qadriyatlar"  
treningi, "Tanishuv" treningi,  
"Og'zaki jurnal" treningi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonlarda o'quvchilarning o'quv- bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan treninglar, ularning ahamiyat va o'ri, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida treninglardan foydalanish yo'llar bayon etilgan.*

Mamlakatimiz tez rivojlanayotgan, o'z istiqbolini o'ziga xos yo'l bilan yaratayotgan davlatlardan biridir. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan [2].

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda [6, 15].

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan ko'plab o'qitish texnologiyalari va treninglardan keng qo'llanilmoqda. Jumladan: muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyiha, keys, ish faoliyatini ifodalovchi turli o'yinlar, treninglar, bahs-munozaralar (nuqtai nazar, tok shoular) ni tashkil qilish va hokazolardir [7, 8, 9].

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida ayniqsa treninglarning o'ri beqiyosdir. Trening-bu talabalarning faol aqliy va nutq faoliyatiga asoslangan darsdir.

Trening – (ingliz tilidan training-train – o'qitmoq, tarbiyalamoq degan ma'noni anglatadi [3]. Ushbu mashg'ulotlarda nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni



**2-qadam.** O'quvchilardan har bir so'zga ta'rif berish talab qilinadi.

**3-qadam.** Guruhlarga bo'linib, keltirilgan so'zlar ishtirokida hikoya yoki ertak tuzish tavsiya etiladi.

**4-qadam.** Guruhlarda bir-birlarining hikoyalari (ertaklari) yuzasidan savol- javoblar o'tkaziladi.

**5-qadam.** Guruh ishlari o'zaro baholanadi.

**6-qadam.** Tarbiyachi mashg'ulotni yakunlaydi.

### **Panorama" treningi**

Trening maqsadi: mashg'ulot o'quvchilarni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib) fikr yuritib hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan zarurini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** o'quvchilar erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o'z fikrini yetkazishga, uni ma'qullashga; qo'yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzular bo'yicha egallagan bilimlarini qo'llay olish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Tarbiyachi mashg'ulotni yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlar, xatarlar: xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm, giyohvand moddalar tajovuzi, OITS, egotsentrizm, axloqsizlik falsafasi, "Dunyo fuqarolari" - kosmopolitizm va ularga nimalarni qarshi qo'yish: farzandlarni asrash, xushyorlik, yoshlarni g'oyaviy qurollantirish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ziddiyatlar mohiyatini oddiy so'zlar, hayotiy misollar bilan tushuntirish, kelajagi uchun mas'uliyatni shakllantirish, iroda, e'tiqodni mustahkamlash, ongli yashashga o'rgatish, axborot tajovuz mohiyatini ochib berish, nikohni mustahkamlash kerakligi haqida ma'lumot berishdan boshlaydi. Tarbiyachi mashg'ulotning asosiy mavzusi bo'yicha yo'naltiruvchi, hozirgi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilayotgani, chunki mafkuraviy immunitet - begona, zararli g'oyalar, mafkuralar bilan to'qnash kelganda, unga nisbatan o'z munosabatini bildira olish, unga qarshi kurashishga g'oyaviy, ma'nan tayyorlash imkoniyati ekanligi, har bir odam, avvalo, har bir yosh o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmaguncha bunday immunitetni shakllantirish haqida fikr bildiradi va shu sababdan bugungi tarbiyaviy mashg'ulotning mazmunini "Zamonaning global muammolari" mavzusi orqali yoritish zarurligini tushuntiradi.

Tarbiyachi kirish so'zidan so'ng, o'quvchilarning umumiy soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lsa maqsadga muvofiq). So'ngra, u o'quvchilarga mashg'ulotning mazmuni va uni o'tkazilish tartibini tushuntiradi. Har bir kichik guruhga avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni tarqatadi. Kichik guruh a'zolari tarqatma materialda berilgan jadvalda yozilgan asosiy "Hozirgi zamon global muammolari" mavzusiga kiritilgan global muammolar bilan tanishib chiqadilar va ulardan bittasini taqdimot etadi. Tanlagan muammolari bo'yicha ajratilgan jadval ustuniga o'z fikr mulohazalarini birgalikda yozma bayon etishlarini so'raydi, mo'ljallangan vaqtni belgilaydi. Guruhlar vazifani bajarishga kirishadilar. Vazifa bajarilgach, tarbiyachi guruhlardagi tarqatma materiallarni guruhlara almashtiradi. Masalan, guruhlar soni 4 ta

bo'lsa, u holda 1-guruh materialini 2guruhga, 2-guruh materialini 3-guruhga, 3-guruh materialini 4-guruhga, 4guruhnikini esa, 1-guruhga beradi va qaytadan vaqt belgilaydi. Guruh a'zolari stollariga kelib tushgan varaqdagi global muammolardan yozilmay qolganidan birini tanlab, unga o'z fikrlarini yozadilar. Vazifa bajarilgach, tarbiyachi tarqatma materiallarni yana guruhlararo almashtiradi, shu tariqa tarqatma materiallar birinchi bo'lib yozishni boshlagan guruhga kelib tushmaguncha, tarbiyachi ularni guruhlar o'rtasida almashtirib turadi, guruhlar esa har gal tarqatma materialdagi tanlanmay qolgan yoki bilmay qolgan bo'limlarni to'latib, o'z fikrlarini yozib boradilar.

Tarqatma materiallar o'z guruhlariga qaytgach, guruh a'zolari tarqatma materialda to'plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o'qib, ularni umumlashtirgan holda, umumiy bir fikrga keladi va guruh vakillaridan birini ushbu fikrni taqdimot qilish uchun tayyorlaydilar. Tarbiyachi guruhlardan taqdimot vaqtida, ayniqsa uning yechimi va unga qarshi qo'yish mumkin bo'lgan fikrlar, tadbirlar, ishlar, uslubiyotlarga e'tiborlarini ko'proq qaratishlarini so'raydi. Taqdimot uchun vaqt belgilanadi. Taqdimot vaqtida boshqa guruh a'zolari bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilishlari, to'ldirishlari mumkin. Tarbiyachi taqdimotni samarali va tartibli bo'lishini ta'minlaydi.

Taqdimot tugagach, tarbiyachi "Zamonaning global muammolari" mavzusi bo'yicha fikrlarni umumlashtiradi, ularning isboti sifatida videomaterial (imkoniyati bo'lsa) yoki fotosuratlar ko'rsatishi mumkin. Tarbiyachi mashg'ulotni o'quvchilarning, guruhlarning ishlariga baho berish, mashg'ulot haqida o'quvchilarning bildirgan fikrlarini aniqlash, bo'sh vaqtlarida mustaqil o'qishlari uchun badiiy-ommabop adabiyotlar, tomosha qilishlari uchun esa filmlar royxatini aytish yoki tarqatish bilan yakunlaydi.

«Zamonaning global muammolari» mavzusidagi «Panorama» treningi uchun jamlangan tarqatma materialning taxminiy nusxasi

Muammolar	Yuzaga kelish sabablari	Salbiy oqibatlari	Hal etish yo'llari	Nimalarni qarshi-qo'yish kerak	Shaxsan men (biz) nima qilishim mumkin (miz)

### "Og'zaki jurnal" treningi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Mashg'ulot tarbiyachining yaqinlashib kelayotgan xalq bayrami yoki guruh o'quvchilari yoki reja asosida o'tkaziladigan tadbir haqidagi suhbatdan boshlanadi. O'quvchilar yoki tarbiyachining taklifi asosida (og'zaki savol-javob yoki yozma shaklida) biron-bir tadbir belgilab olinadi. So'ngra, ushbu tadbirda nimalar haqida so'z yuritilishi, qanday chiqishlar bo'lishi, avval shu kabi o'tkazilgan tadbirdan nimasi bilan farqlanishi, uni qanday tashkil etish, o'tkazish, barchaning ishtiroki qanday bo'lishi haqidagi fikrlar almashinadi. Bir to'xtamga kelingandan so'ng, tarbiyachi o'quvchilar bilan birgalikda tadbirning mantiqiy ketma-ketligini, ya'ni rejasini belgilab oladi. Masalan: "Navro'z-bahor bayrami" mavzusidagi bayram

tayyorlanishi mo'ljallangan bo'lsa, tarbiyachi o'quvchilar bilan o'z suhbatini quyidagicha tashkil etishi mumkin: «Hurmatli o'quvchilar, biz, "Navro'z" haqidagi bilganlarimizni og'zaki hikoya shaklida fikrlashib, uning umumiy rejasini tuzib olamiz. "Navro'z" haqidagi hikoyamizni nimadan boshlash kerak? Qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak? Yoki qanday sahifalardan iborat bo'lishi kerak? degan savollarga javob topa olishimiz kerak». Kirish so'zidan so'ng "Aqliy hujum" uslubidan foydalangan holda, tarbiyachi, o'quvchilar tomonidan erkin aytilgan barcha fikr, mulohaza va g'oyalarni vatman yoki doskaga yozib boradi. "Navro'z - bahor bayrami» og'zaki jurnali (guruhlar tomonidan umumiy muhokamada kelishilgan holda tuzilgan reja-loyiha) taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-sahifa. - "Assalom, Navro'z!" sahifasi. Bu sahifada Navro'z bayrami, uning tarixi, o'ziga xos xislatlari, tabiati, boshqa bayramlardan farqi, uning go'zalligi, tarovati haqidagi ma'lumotlar adabiy-musiqaviy kompozitsiya shaklida, ko'klam ko'rinishlari, videofilm, bahoriy kuy yoki qo'shiqlar ishtirokida tayyorlanadi va o'tkaziladi.

2-sahifa. - «Navro'z va bahor fasli bayramlari» sahifasi. Bu sahifada Navro'zning kichik bayramlari "Qushlar bayrami", "Boychechak bayrami", "Tolbargak bayrami", "Ko'k maysa bayrami", "Varraklar bayrami", "Aytishuvlar bayrami", stuningdek, shu faslda tavallud topgan buyuk allomalar, donishmandlar va mutafakkirlar hamda O'zbekistonda nishonlanadigan xalq bayramlari haqidagi ma'lumotlar tadbirda ishtirok etayotganlar bilan jonli muloqot, savol-javob, intervyu shaklida yoki filmlar, slaydlar namoyish qilish orqali ko'rsatilishi mumkin.

3-sahifa. - «Navro'z dasturxoniga» sahifasi. Bu sahifada Navro'z bayrami dasturxoniga tayyorlanadigan bahor taomlari, ularning tarixi, tayyorlanishi, dasturxonga tortilishi, mehmon kutish haqidagi ma'lumotlar taomlar ko'rgazmasi" yoki "oila dasturxoniga" yoki "oshpazlar, qandolatchilar", "bahoriy salatlar" tanlovlari, sahna ko'rinishi o'quvchilar ishtirokida ularning amaliy ijrosi orqali namoyish etilishi mumkin.

4-sahifa. - "Navro'z - do'stlik, qardoshlik bayrami" sahifasi. Bu sahifada ta'lim muassasida tahsil olayotgan turli millat vakillarining chiqishlari (yoki o'quvchilarning o'zlari shu rollarda), ularning milliy urf-odatlarini, liboslari, san'atlari, an'analari haqidagi ma'lumotlar "Do'stlik festivali yoki karnavali" shaklida tayyorlanadi va o'tkaziladi.

5 - sahifa - «Navro'z - baxt-saodat, shodlik bayrami» sahifasi. Bu sahifa xalq sayli shaklida tayyorlanadi va o'tkaziladi. Xalq saylining barcha unsurlari: uloq, kurash, folklor qo'shiqlar, o'quvchilar folklori, qo'g'irchoq o'yini, mushoira, aytishuvlar, lapar qo'shiqlar, askiya, topishmoqlarni o'z ichiga oladi; tantanali bayram barcha kerakli texnikaviy vositalar, atributlar, kiyimlar bilan namoyish etiladi.

6 - sahifa - «Navro'z va bahor liboslari» sahifasi. Bu sahifa "Modalar teatri" ko'rinishida o'quvchilar ishtirokida tayyorlanadi va o'tkaziladi. O'quvchilar milliy liboslar, bayram liboslari, kundalik va ish liboslari, quyoshli va yomg'irli kunlarning liboslari, o'quvchilar, yoshlar va kattalarning bahoriy kiyimlari, taqinchoqlarini qo'shiqlar ostida namoyish etadilar. Mehnat tarbiyachisi yoki o'quvchilardan biri namoyish etilayotgan liboslar, poyfzallar, taqinchoqlarga mutaxassis sifatida fikr bildirib boradi (bu sahifada o'quvchilar o'zlari tikkan kiyimlarni ham namoyish etishlari yoki ularning ko'rgazmasini tashkil etishlari mumkin). Shu sahifada boshqa millat vakillarining milliy liboslari haqida ma'lumot berilishi yoki ko'rsatilishi mumkin. Guruhlarning chiqishlari tugagach, tarbiyachi o'quvchilar bilan birgalikda namoyish etilgan sahifalarning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiladi, ulardan ushbu shakldagi tadbir ularni nimaga o'rgatgani va ular nimalarni bilib olishgani bilan qiziqadi. Kerakli

tavsiyalar va tushunchalar beradi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Shunday qilib, trening o'tkazish jarayonida tahsil oluvchilar motivatsiyasi yuqori bo'lib, do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, jamoada ishlash uchun qulay sharoit vujudga keltirish hamda o'quvchilar o'rtasida ruhiy to'siqlarni yengish, muloqotga tez kirisha olish ko'nikmalari shakllanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF - 6108 - son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni.
3. Dexkonova M.U. "Issues to increase the efficiency of pedagogical activity in higher education" Sciences of Europe (Praha, Czech Republic) VOL 2, No 72 (2021). ISSN 3162-2364.
4. Ulmasovna D.M., & Behruz, B. (2022). The role of modern educational technologies in the teaching of legal sciences. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 305-309.
5. Dexkanova Ma'mura Ulmasovna, Abdurahmonova Iroda, Sharifova Zuhra Komil qizi. (2023). UMUMIY O'RTA VA O'RTA MAXSUS TA'LIMDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA TARBIYAVIY TRENINGLARDAN FOYDALANISH. YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI, 1(1), 13–17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.751474>
6. Dexkanova Ma'mura Ulmasovna, Kazakova Sojida Nariman qizi, O'tkirova Sevara Sanjar qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI, 1(1), 18–22. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7514752>
7. Dexkanova Ma'mura Ulmasovna, Rixsiboyeva Madinaxon Qodirjon Qizi. bo'lajak Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish *AnaLiycaL. Education for Development* VOL 3, Issue 4. (2023). ISSN 2181-2624.
8. Dexkanova M.U. Pedagogikaning dolzarb muammolari. *Galaxy international interdisciplinary research journal*, 10(10), <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2582>
9. Dehqonova Ma'mura, Safarbayeva Ro'zaxon. O'quvchi va talaba-yoshlarning ijodiy qobiliyati va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan dastur hamda texnologiyalar. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 1707.2022. <https://zenodo.org/record/6657727#.Y7W0ZHVBzIU>
10. Ulmasovna, D. M., Asadova, I. Z., Ravilevna, A. A., & Kizi, T. M. B. (2022). Enhancement the creativity of teachers in the context of digital education. "Enhancement the creativity of teachers in the context of digital education" *International Journal of Health Sciences* <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS5.8967>
11. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
12. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya

rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2/S), 103-109.

13. Tursunaliyevna, A. M., & Karimovna, N. Y. (2022). Maktabgacha tarbiya muassasalarida madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash–bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(1), 98-103.

14. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.

